

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI**

**PSIXOLOGIYA TA’LIM YO‘NALISHI II KURS TALABASI
QAYUMOVA DILDORA IKROM QIZI**

REFERAT

**MAVZU: SHAXSNING IJTIMOIYLAHSHISH
OMILLARI**

Buxoro – 2016

MAVZU: SHAXSNING IJTIMOIYLASHISH OMILLARI

REJA:

KIRISH

I BOB. SHAXSNING RIVOJLANISHI VA IJTIMOIYLASHUVI

- 1.1. Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha
- 1.2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida shaxs talqini

II BOB. KISHILIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA SHAXSNI TARBIYALASH MUAMMOSI

- 2.1. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari
- 2.2. Tarbiyaning ijtimoiy hodisa va pedagogik jarayon ekanligi

XULOSALAR

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

KIRISH

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilishi kerak.

«Hech bir odam dunyoga tayyor bo'lib tug'ilmaydi, ya'ni to'la shakllangan bo'lib, lekin uning har qanday hayoti to'xtovsiz rivojlanish harakatida, tinimsiz shakllanishda bo'ladi», deb yozgan edi V.G.Belinskiy.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining Tafakkur jurnaliga bergan intervyusida jamiyatimiz uchun mustakil fikrlovchi erkin shaxs tarbiyasi dolzarb masala ekanligini takidlaydi: Bizga meros bulib kolgan talim tarbiya tizimining malum bir makul jixatlari bilan bir katorda uning eng nomaqbul tomoni shundan iborat ediki, ukuv jaraenida ukuvchi va talabalarni mustakil va erkin fikrlashga yul kuymaslik, har kaysi ukuv yurtlarining bilimiga karab emas, avvolo, ularning sobik sovet tuzumiga va soxta g'oyalariga sadokatini xisobga olib baxolash va xayotga yo'llash tamoyili asosiy o'rinni egallar edi. Ko'p joylarda sifat o'rniga son ketidan quvish ustunlik qilardi. Kupchilik haqiqiy bilim yoki malaka orttirish maksadida emas, amal taqal qilib diplomli bo'lib olish ilinjida texnikum yeki institutlarga kirar edi. Bu tuzumdan bizga kolgan meroslar ichidagi shunga uxshagan salbiy asoratlarni, afsuski, xozir ham sezib turibmiz. Bu tizim vataniga, xalkiga, millatiga fidakor, mustakil fikrleydigan, biror bir masalani ongli ravishda, masuliyat bilan xal kiladigan, izlanuvchan, yangilikka intiluvchi kadrlarni emas, asosan saez saviyali kadrlarni, mute kishilarni ming-minglab yetishtirgan edi.

I BOB. SHAXSNING RIVOJLANISHI VA IJTIMOIYLASHUVI

1.1. Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha.

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo‘lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo‘lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o‘zini yaxlit inson sifatida his etishi, o‘z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog‘i kerak.

Bola ma’lum yoshga qadar “individ” sanaladi. Individ (lotincha “individuum” so‘zidan olingan bo‘lib, «bo‘linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma’nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.

Individuallik esa shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, uning namoyon bo‘lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o‘rganish, uning yashash sharoitlaridan yetarli darajada xabardor bo‘lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular ta’sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o‘rishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o‘tish, yangilanish, yangining paydo bo‘lishi, eskining yo‘qolib borishi, miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarashliklarni o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta’limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning

rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.

Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.

Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.

Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Shaxs psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi muayyan jamiyat a'zosi bo'lib, uning shakllanishi ijtimoiy munosabatlar jarayonida kechadi. Mazkur jarayonda qatnashish asosida u jamiyat tomonidan tan olingan ma'naviy-axloqiy, shuningdek, huquqiy me'yorlar mohiyatini o'zlashtiradi. Jamiyatning a'zosi sifatida uning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi mehnat faoliyatini yo'lga qo'yadi. Shuningdek, shaxsiy ehtiyojlari, manfaatlarini qondirish yo'lida ham atrofdagilar bilan munosabatga kirishadi.

Shaxs ijtimoiy muhitdan uzilgan holda mavjud bo'la olmaydi. Buning misoli sifatida R.Kipling tomonidan yaratilgan asardagi Mavglini keltirish mumkin. Garchi, inson bolasi bo'lsada, ijtimoiy munosabatlar jarayonida ishtirok etish ko'nikma va malakalari shakllanmaganligi bois odamlar hayotiga moslasha olmaydi.

Bola yoshligidan o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlarini tengdoshlari bilan birgalikda tashkil etish asosida ijtimoiy muhitga moslasha boradi. Ijtimoiy muhit bolaga borliqni anglash uchungina emas, balki o'zligini anglash uchun ham

imkoniyat yaratadi. Bolaning doimiy ravishda jamoa orasida bo'lishi, uning jamoa ta'sirida shakllanishi unda ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi.

Sharq mutafakkirlari jamoaning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roliga alohida e'tibor berganlar. Xususan, Abu Ali ibn Sino ijtimoiy muhitning shaxsni shakllantirishdagi rolini yuqori baholaydi. Tashqi muhit va odamlar insonning borliq, unda kechayotgan o'zgarishlar, jarayonlar mohiyatini anglashgagina emas, balki uning xulqida yaxshi va yomon sifatlarning shakllanishiga ham sezilarli ta'sir etishi, shu bois bolalarni tarbiyalashda u mansub bo'lgan mikromuhit xususiyatini inobatga olishni ta'kidlaydi. Bolani yomon ta'sirlardan saqlash zarurligini uqtiradi.

Shuningdek, alloma o'qitish samaradorligini ta'minlashda bolalarga jamoa asosida bilimlarni berishni maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi.

Abu Nasr Forobiyning uqtirishicha, inson blshqalar bilan munosabatda bo'lish, ularning yordami va qo'llab-quvvatlashlarini his etish ehtiyojiga ega. Ana shu ehtiyojni qondirish yo'lidagi amaliy harakatlar insonni kamolotga yetaklaydi, deb hisoblaydi. Abu Rayhon Beruniy esa shaxsning rivojlanishida o'zaro yordam, hamkorlik, odamlarga nisbatan xayrihohlik uning ijtimoiy muhitdagi roli va o'rnini belgilab beradi.

Shaxs rivojlanishida faoliyatnig o'rni. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi.

O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko'ra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi – muloqotdir.

Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi.

Ta'lim jarayonida faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi.

Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatining ham turlarini kengaytiradi. Shunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlicha bo'ladi. Ta'lim muassasasida hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak.

Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axlohiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymaganligidadir.

Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi, qobiliyati kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Shaxsning ijtimoiylashuvi. Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Chunki ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchi jamiyatga «kirishadi» va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma) orttiradilar, ya'ni, ijtimoiylashadilar.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallr, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi.

Odamlar ijtimoiy me'yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o'rganadilar.

Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik

qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba'zan aksi ham bo'ladi: to'liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba'zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko'rsatmaydigan odamlar ham mavjud.

Bu holat ko'p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o'qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g'oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin.

Zero, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ham ta'kidlab o'tilganidek, uzluksiz ta'limni tashkil etish, rivojlantirish hamda ta'limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Respublika Oliy Majlisining birinchi chaqiriq 1 sessiyasida qilgan ma'ruzasida O'zbekistonda demokratik tuzumni barpo eta borish bilan birga amalga oshirilayotgan ulkan uzgarishlarni asosiy ishtirokchilari bulgan jamiyatimiz a'zolarining ma'naviyati butunlay yangicha karor toptirish lozimligini ta'kidlagan edi.

Kelajagi buyuk davlatni qurayotgan kishilarni tafakkuri, axloki, yangi iktisodiy munosabatlarini taklashga, moddiy ne'matlar ishlab chikarishga astoydil kirishib doimo yonib yashash xissi bilan sug'orilgan bo'lishi lozim. Mana shunday ijobiy xislatlarga boy insonni tarbiyalash pedagogika o'qituvchilarini, o'quv yurtlarini, maktab, litsey, gimnaziya, kollej, institut va universitetlarning asosiy vazifasi xisoblanadi.

Tarbiya jamiyat vazifasi bulib, u fakat ishlab chikarish munosabatlari ta'sirida emas, balki turli tarixiy davrlarda ilgari suriladigan u yoki bu tarbiya nazariyasining g'oyalari ta'sirida aniq shaklga ega bo'ladi. Agar tarbiya aloxida mustakil vazifa sifatida kishilik jamiyati paydo bulishi bilan birga tarkib topgan bulsa, ta'lim nazariyasi fan sifatida bir muncha keyinrok shakllangan.

Shaxs – ta'lim xizmatlarining iste'molchisi va yaratuvchisidir. U ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida davlat tomonidan sifatli ta'lim va kasbiy tayyorgarlik olishi kafolatlangan.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi hamda tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi.

Shundan kelib chiqqan holda, oliy maktab oldida nafaqat bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy sifatleri, balki uning shaxsiy sifatlarini shakllantirishdek, bosh vazifa turadi. Bu vazifa o'zaro aloqada va yaxlitlikda hal qilinishi oliy maktabning barcha o'quv-tarbiya jarayoniga bag'ishlanishi lozim.

Shaxs sifatleri haqida gapirar ekanmiz, bo'lajak o'qituvchida bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish xususiyatlari; shaxsning dunyoqarash sifatleri va uning pedagogik faoliyatga tayyorligini shakllantirish mexanizmlari aniqlanishi zarur.

Shaxs – muayyan ijtimoiy guruhning vakili bo'lgan, biror faoliyat turi bilan shug'ullanadigan, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'la oladigan, o'ziga xos individual-psixologik xislatlarga ega bo'lgan konkret (aniq) insondir.

Shaxsning psixologik xislatlariga quyidagilar taalluqli: xarakter, temperament, qobiliyat, hissiyotlari va motivlari, shuningdek, ruhiy jarayonlarning xususiyatlari.

Har bir kishidagi sirasini aytganda tor ma'nodagi shaxsda takrorlanmas individual xislatlari to'plami undagi barqaror yaxlitlikni vujudga keltiradi. Bu yaxlitlikka shaxsning nisbiy turg'un psixologik qiyofasi va boyligi sifatida qaraladi. U psixik holatlar va unga tegishli jarayonlarning to'xtovsiz o'zgarib turishiga qaramasdan saqlanib qoladi. Shuningdek, shaxsning psixik boyligi uning yashash sharoiti va ijtimoiy tarbiya jarayonlarida yuz berayotgan o'zgarishlarning oqibati sifatida ma'lum darajada harakatchan, o'zgaruvchanligini saqlab qoladi.

Inson shaxsiy ehtiyojlarining xilma – xilligi yohud turlicha ifodaviyligi uning o'zi mansub bo'lgan jamoa va jamiyat ehtiyojlariga bo'ysunadi. Ayni paytda

shaxsning umumiy faolligi xususida qarashlar yanayam teranlashadi. Nihoyat shaxsning o'z jamoasi bilan birgalikda jamiyatdagi o'rni belgilanadi.

Murakkab hosila ehtiyojlar sifatida taassurot uyg'otuvchi qiziqish, moyillik, did, ko'rsatma, e'tiqod, istaklarning yaxshi yig'indisi «motivatsiya doirasi»ni, shaxsning «yo'nalganligi»ni hosil qiladi. Hamda shaxs voqelikka bo'lgan ob'ektiv va sub'ektiv munosabatlarni to'la ifoda etadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, shaxs bir butun holdagi ichki shart-sharoitlar yig'indisi bo'lib, uning vositasida tashqi ta'sirlarning in'ikosi yuz beradi. Bunda shaxs mukammallik kasb etadi.

Shaxsning rivojlanishi uning faoliyatida amalga oshiriladi. Bu rivojlanish shaxsga xos va uning uchun muhim hisoblangan motivlar tizimi bilan boshqariladi.

Shaxsni harakatga keltiruvchi kuch tobora ko'payib boradigan ehtiyojlar va ularni qanoatlantiradigan real imkoniyatlar orasidagi ichki ziddiyatlar orqali ro'y beradi. Ehtiyojlar esa shaxs rivojlanishining mustahkam omillari va natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

A.V.Petrovskiyning tadqiqotlarida ko'rsatilishicha, inson shaxsining xarakterli tomonlaridan biri uning individualligidir. A.V. Petrovskiy shaxs tuzilmasida unga xos bo'lgan xarakter, temperament, psixik jarayonlarning kechish xususiyatlari, faoliyatning kuchli hissiyotlari va motivlari yig'indisi, shakllangan qobiliyatlari zahiradagi bilim va ko'nikmalarining betakror uyg'unligini qayd qiladi. Inson individ sifatida jismoniy va psixik mazmun kasb etadi. Natijada inson psixikasi emotsiya va ongga bo'linadi.

Insonda eng oliy tafakkur va amal bir butunlikda ko'rinadi. Ya'ni rux va jism birligida yaratuvchanlik, ixtirochilik va bilimdonlik kabi xususiyatlarga ega ekanligi bilan o'zlikka, yangilikka intiladi. Shunda yuqori darajada rivojlangan ong aniqrog'i aql hissiy yaxlitlikda shaxsni jamiyat uchun tarbiyalaydi. O'zlikni anglash g'oyasi mushohada natijasida Oliy ong tushunchasi tarkib topadi. Bu masala xususiyatida biolog, filolog va faylasuf olimlarning turlicha qarashlari mavjud.

Masalan, G.K.Selevkoning aniqlashicha, shaxs umumlashtirilgan xilma-xil sifatlar tizimida ko'rinadigan insonning psixik, ma'naviy mohiyatidir.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda shaxs rivojlanishini asosan uch omilga: - irsiyat, muhit va tarbiyaga bog'laydilar.

Ma'lumki, ong yuqori darajada rivojlangan tafakkurning birlamchi mahsuli bo'lib, u insonni hayvondan farq qilishi uchun asosiy omildir.

Irsiy omil ota-onalardagi ayrim sifat va xususiyatlarning bolalarga o'tishidir. Irsiyatni genlar vujudga keltiradi.

1.2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida shaxs talqini

Shaxs o'zini taniy boshlagandan ta'lim-tarbiyaga ehtiyoj sezadi. Ta'lim-tarbiya o'z kelajagi uchun eng muhim omil ekanligini anglamasligi mumkin emas. Ota-onalarning o'z farzandiga bo'lgan otalik va onalik mehri ta'lim-tarbiyaning ahamiyati va zaruriyligini anglashga undashi tabiiy. Jamiyat hech vaqt bir joyda to'xtab qolmaydi, balki mudom rivojlanishda bo'lishi bu hayotiy qonuniyatdir. Binobarin, ta'lim-tarbiya jamiyatning oldinga qarab rivojlanishida zarur bo'lgan omillarni shakllantiradi. Ta'lim-tarbiya umumxalqqa tegishli va ayni paytda odamlar yoshiga, rivojlanish darajasiga qarab ma'lum yo'nalish hamda mezonlarga ega bo'ladi. Bu ta'lim-tarbiyaning andozaga bo'lgan ehtiyojini ham belgilaydi. Ta'limning ham, tarbiyaning ham me'yoriy, mazmun mundarijasi, yo'nalish turlari, miqdori bo'ladi.

O'z o'zidan ma'lumki, xalq va Vatanning kelgusi istiqboli, taqdiri bugun maktabda ta'lim olayotgan kelajak avlodga bog'liq. Ta'lim-tarbiyaning mazmuni, saviyasi mamlakat iqtisodiyoti, siyosatining oqibatini belgilaydi. Shuning uchun o'z kelajagini o'ylagan millat, mamlakat ma'naviy ma'rifiy islohotlar orqali ma'naviy yetuk avlodni voyaga yetkazish, ular uchun zamonaviy shart-sharoitlar yaratishni birinchi navbatda hal etilishi zarur bo'lgan muammolar deb qaraydi. O'tgan qisqa davrdayoq har jihatdan barkamol, iymon e'tiqodi mustahkam, bilimli, fidoyi vatanparvar kishilar Vatan istiqbolining porloqligiga zamin bo'lishi tobora ayon bo'ldi. Shuning uchun ham Prezidentimiz aytganlaridek, "Buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimiz taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlarimiz,

rejalarimizning samarali taqdiri” bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz. Shunday ekan, mustaqilligimizning istiqboli, mamlakatimizning ertasi, buyuk kelajak yaratish yo‘lidagi dasturiy maqsadlarning pirovard natijasi komil avlodni voyaga yetkazishga, ta’lim - tarbiya tizimida jiddiy yangilanishlarni vujudga keltirishga bog‘liq. Demak, biz hozirda maktab va o‘quv yurtlarida ta’lim - tarbiya mazmunini zamon talablariga muvofiq o‘zgartirishimiz, o‘qituvchilar saviyasi, pedagogik mahoratini tubdan yaxshilashimiz orqali ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishimiz lozim bo‘ladi. Xullas, ta’lim-tarbiya tizimi har jihatdan islohga muhtoj edi. O‘quv dasturlaridan tortib, o‘quv jarayonining ichki mazmunigacha, o‘qituvchilarimizning bilim saviyasi, mahoratidan tortib, jamoatchilik o‘rtasidagi nufuzigacha barcha-barchasida isloh qilishga, yangicha munosabat bildirishga ehtiyoj sezilib turardi. Prezidentimiz maktabning zamona taraqqiyotidan orqada qolayotganligini ta’kidlashi bejiz emas. Binobarin, maktab islohotiga jiddiy yondashmaslik, u taraqqiyotdan orqada qolaverishi bilan mushkullarimiz ortganidan ortib boraverishi muqarrar. Aksariyat insonlarning dunyoqarashi, ma’naviyatiga bozor iqtisodiyoti shart-sharoitlari teskari ta’sir ko‘rsatdi. Natijada xususiylikni shaxsiylikka aylantirish, shaxsiy manfaat yo‘lida ko‘proq mehnat qilish, pulni barcha muammolarni hal etishning yagona vositasi deb qarovchi kishilar tez ko‘zga tashlandi. Maktab islohotini izchillik bilan amalga oshirish orqali farzandlarimizni bilimga, kasb-hunarga o‘rgatishimiz jamiyat kelajagi uchun qayg‘urgan har bir kishining muhim vazifasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to‘g‘risida” gi Farmoni, “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash Milliy dastur”i ulkan tarixiy ahamiyatga ega.

Ma’lumki, har bir davlatning ta’lim sohasida o‘z dasturi, konsepsiyasi va andozalari bo‘ladi. Bu dastur va konsepsiyalar ta’lim tizimining to‘la isloh qilinishi va o‘ziga xos universal model yaratish yoki mukammallashtirish, mavjud

tizimlardan foydalanib, o'z ta'lim sohasini rivojlantirish strategiyalarini nazarda tutishini tushunish mumkin.

Davlatimizda ishlab chiqilgan dastur, garchi milliy bo'lsada, u umumiy va chegaralanmagan ta'lim tizimi, strategiyasi va modellari, andozalari talablarini hisobga olgan holda tuzilganligi, chegaralanmagan universal tizim tarzidadir.

Milliy dasturda qabul qilingan atamalardan, ta'lim tuzilmasi tizimlarida mavjud bo'lgan struktura va terminlardan foydalanishi zarur bo'lgan an'anaviy usuldir. Ammo kadrlar tayyorlash sohasidagi milliy modelning tizimlari va tarkibiy qismlari turlichadir. Faqat O'zbekistonning o'ziga xos, ya'ni kadrlar tayyorlashning milliy modeli tarkibi bu shaxs (sub'ekt), davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish deb konkretlashtirilishi milliy dasturning yagonaligidir. Milliy dasturda umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarda o'qishning ixtiyoriyligi va ularda bepul, davlat hisobidan o'qitish, bilim berish imkoniyatlarining yaratilganligi, dasturdagi umumiylik va milliylik, ta'limning ijtimoiy taraqqiyotda ustuvor deb e'lon qilinishi, ta'lim demokratiyasi, ta'lim olishning majburiyligi, iste'dodga berilayotgan e'tibor diqqatga sazovor hisoblanadi.

Milliy dastur mamlakatdagi ta'lim tizimining hamma tomonlarini qamrab olganligi, hozirgi zamon talablari ko'zda tutilganligi, bozor munosabatlarini hisobga olib marketing, menejment kabi mutaxassisliklar tayyorlashga ahamiyat berilganligi, yangi dasturning tashabbuskori shaxsan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ekanligi va uni Oliy majlis hamda Vazirlar Mahkamasi qo'llab quvvatlaganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz Prezidentining asarlari va nutqlarida joylarda ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tubdan yaxshilashning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Ana shu dastur yo'nalishlar bo'yicha izchil va qat'iyat bilan ish olib borish eng muhim vazifamizdir.

Davlatimiz istiqbolini yaratuvchi ma'naviy yetuk, ma'rifatli, ruhiyati baland, jismoniy sog'lom, vujudida Vatan tuyg'usi, istiqlool g'oyalariga sadoqat ruhi jo'sh

urgan yosh avlodni voyaga yetkazish maqsadida barcha imkoniyatlardan samarali foydalana bilishimiz darkor. Zero odamlar ma'naviyatli, ma'rifatli bo'lsa, jamiyat farovon, davlatimiz qudratli bo'ladi. Barcha sohalarida adolat, insof, diyonat, qonuniylik madaniyati, so'z va ish birligi o'sib ulg'ayadi.

“Bugun O'zbekiston faqat juda boy tabiiy xom-ashyo zaxiralari, cheksiz bozor va sarmoya sarflanadigan sohagina emas. Ayni chog'da mamlakatimiz g'oyat ulkan aql-zakovat, ma'naviy va madaniy imkoniyatlarga ega. Bularning barchasi dunyoda yangi siyosiy va iqtisodiy tartib faol shakllanib borayotgan bir sharoitda, yurtimizning noyob jo'g'rofiy o'rin bilan qo'shilgan holda juda katta jo'g'rofiy-siyosiy va jo'g'rofiy-strategik qiziqish uyg'otadi... Sayyoramizning juda katta maydonida kuchlar nisbati ko'p jihatdan Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar qaysi yo'ldan borishlariga bog'liq. Hozir xalqaro munosabatlarning sifat jihatidan yangicha tartibini shakllantirish jarayonida ishtirok etayotganlar buni e'tirof etmasliklari mumkin emas”. Ushbu fikrlarning o'zidayoq Markaziy Osiyoga, shu jumladan, O'zbekistonga bo'lgan e'tiborning tub sabablari ifodalab berildi. Kitob tinchlik, osoyishtalik, barqaror turmush tarzi ko'p jihatdan odamlar dunyoqarashi, ongi, siyosiy xushyorligiga bog'liq ekanligini kuchli samimiyat bilan dalillab beradi.

Insoniyatning barcha hayotiy faoliyati tabiiy omillar bilan uzviy bog'liqdir. Bu esa, o'z navbatida shaxsning jamiyat hayotiga kirib kelish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, uning ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishi natijasida o'zini o'rab turgan tabiiy muhitga axloqiy munosabatda bo'lish yo'l-yo'riqlari, baho va harakatlarini o'z ichiga oladi.

Tabiiy ekologik omillar insonning ijtimoiylashuviga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, tashqi ta'sirlar – mega, mezo va mikroomillar; ichki ta'sirlar – individning sotsiumdagi tabiiy ob'ektlar bilan uyg'un aloqalar o'rnatishi uchun ruhiy, axloqiy va fuqarolik jihatdan yetilganlik darajasi.

Mezaomillar – bu fazo, sayyora, olam bo'lib, u sayyoralar o'rtasida ekologik ijtimoiylashuv jarayonida ishtirok etadi. Ya'ni, ijtimoiy muhitga ta'sir ko'rsatuvchi nurlanish, chaqmoq, bo'ron, tabiiy iqlim tilan bog'liq turli xil hodisalarning o'ziga

xos xususiyatlari hamda ijtimoiy hayot shakllari. Bu omillar dunyo miqyosidagi umumbashariy ekologik muammolar manbai hisoblanadi.

Megaomillar ijtimoiy jarayonga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, XX asrning 50-yillarida Yer yuzida umumbashariy miqyosda atom vahimasining vujudga kelishi ijtimoiylashuv jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda yoshlarning katta qismi hayot istiqboliga emas, balki bir soniyalik ehtiyoj, intilish, qadriyatlarga qarab o'z yo'nalishlarini belgilay boshlashdi. Bu bir qadriyat «Shu yerda-hozir» shioriga asoslangan edi.

80-90 yillarda bizning avlodimizga ekologik muammolar ham shu xilda ta'sir ko'rsata boshladi.

Umumbashariy jarayonlar va muammolarning o'sib kelayotgan yosh avlod ijtimoiylashuviga bilvosita ta'siri turli yo'nalishlarda namoyon bo'la boshladi. Atrof-muhit ifloslanishiga yetakchilik qiluvchi xo'jalik faoliyati kishilar hayot sharoitlarida o'z ifodasini topdi.

Mikroomillarning ijtimoiylashuvga ta'sir ko'rsatish manbalari mamlakatlar va xalqlar hisoblanadi. Mamlakat geografik-madaniy tushuncha sifatida aholi va ularning hayot faoliyatiga o'zining iqlim sharoiti bilan bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatlarning iqlim hamda geografik sharoitlari aholi mehnatini yengillashtiradi yoki murakkablashtiradi, davlatning xo'jalik taraqqiyoti yo'nalishi va darajasini aniqlaydi.

Iqlim sharoiti odamlarning ruhiyati hamda jangarilik yoki tinchliksevarlik, tushkunlikka berilish yoki mo'tadillik, itoatsizlik yoki iltifotlilik, ilmiy izlanishlarga yoki san'at bilan shug'ullanishga moyillik kabi xarakterli xususiyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatib o'tilgan omillar aholi tug'ilishi, uning barqarorlashuvi, salomatligining holati va bir qator kasalliklarning keng tarqatilishiga sabab bo'ladi.

Xalq tarixiy, ijtimoiy, madaniy mavjudot sifatida jamoaning ma'naviy qadriyatlar haqidagi tasavvuri mumkinqadar ko'proq mintalitet orqali ayni shu xalqning ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadi.

Biz ushbu maqolada mintalitet orqali xalqning ijtimoiylashuviga ta'sir qilish masalasini yoritishni maqsad qilib qo'yamiz. Ijtimoiylashuv tushunchasining ekologik jihatlari, ya'ni milliy, ijtimoiy-ekologik ideal haqida tasavvur, tabiatga munosabatning etnopsixologik xususiyatlari, mikromuhitning ahamiyati, ekologik bilim, munosabat va xatti-harakatlarning ijtimoiylashuv yo'llari haqida fikr yuritish bilan cheklanamiz.

Shaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga ekologik jihatlarning kiritilishi insonni tabiat bilan jamiyatning ijtimoiy-ekologik maqsadlariga muvofiq keluvchi eng maqbul o'zaro munosabatlar o'rnatishga erishishi uchun xizmat qiladi. Bu bir qator olimlar fikriga ko'ra eng maqbul o'zaro munosabatlar insonning tabiatga munosabatini baholashga tayanadigan etalon sifatida qabul qilinadigan «ijtimoiy-ekologik ideal» tushunchasida o'z aksini topadi.

Respublikamizdagi hozirgi vaziyatga muvofiq ravishda bu insonni tabiatga munosabati va uning jamiyatdagi xulq-atvorini demokratik jamiyat qurish hamda bozor iqtisodiyoti vazifalariga muvofiq tarzda tashkil etilishi lozimligini bildiradi. Bular quyidagilarga erishish imkonini beradi:

- tabiiy boyliklardan oqilona foydalangan holda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi;
- shaxsning har tomonlama rivojlanishi (bunda tabiatni ilmiy anglash va undan estetik munosabatlarda foydalanish uchun tabiiy boyliklarni tiklash va saqlashni talab etadi);
- insonlar hayoti davomida ekologik sharoitlarni yaxshilash va saqlash (buning uchun havo tozaligi va suv havzalari sanitar holati haqida qayg'urish zarur).

O'zbekistonda ijtimoiy-ekologik ideal milliy mintalitetga mos tarzda shakllanadi va vujudga keladi. U tasavvur va munosabatlar darajasida tabiiy inshootlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga qaratilgan ob'ektiv harakatlarni va tabiat olamiga tabiiy jonli tarzda qo'shib ketishi bilan tavsiflanadi.

O'zbek millatiga mansub bo'lgan shaxsning tabiatga munosabati va uni qabul qilish xususiyatlari sharqona mintalitet mazmunida ifodalanadi.

Bu quyidagilarda o‘z aksini topadi:

- o‘zbek madaniyatiga xos bo‘lgan ekologik ong va munosabat tabiiy ob’ektlarni sub’ekt sifatida idrok qilinishi;

- ularga yuqori darajada ob’ektiv ta’sir ko‘rsatishi;
- tabiat olamiga tabiiy jonli tarzda qo‘shilishi bilan tavsiflanadi.

Bundan tashqari, hayotiy maqsadlar, axloqiy tarbiya va mezonlarning ommaviy yo‘nalishlari shaxs kamolotini ta’minlashga yo‘naltirilgan qator metodik qo‘llanmalarda inson qadr-qimmatini his etishning pasayishi, o‘z «Men»ining g‘oyib bo‘lishi yoki atrof-olam bilan tutashib ketishi taxmin etiladi.

Milliy dunyoqarashda barcha tirik mavjudotlar bir xil qiymatli mahsulot va muayyan hududda yashovchi odamlar e’tirof etiladi. Butun borliq kishilik jamiyatining hurmati va olqishiga loyiqdir. Shuning uchun tabiat va insonning o‘zaromunosabatini ifodalovchi sharq andozasi uning tabiat bilan aloqalarida uyg‘unlikni namoyon qiluvchi benuqson model hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda tabiiy hodisalarga munosabat va ularni baholashda, ayniqsa yoshlar orasida qarama-qarshiliklar kuzatiladi. Bu ijobiy ma’nodagi milliy-ekologik qadriyatlar muhitida yuzaga keladi. Boshqa bir tomondan esa – moddiy boyliklarga sig‘inish, axloqiy qadriyatlar yo‘qolib ketishining rivojlanish holati bilan tabiatni muvofiq tarzda idrok etish jarayonining buzilishi kuzatiladi. Bularning barchasi shaxsiy va ijtimoiy qiziqishlar o‘rtasida uzilishning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Axloqiy, ekologik va ijtimoiy me’yorlardagi bunday chekinishlarni bartaraf etish zarur.

Bu jarayonda, shuningdek, Respublikada istiqomat qiluvchilar xulq-atvori hamda ekologik tushunchalarni anglashining ijtimoiylashuv jarayoni kabi qo‘shnilik hamjamiyatini yaratuvchi mikromuhit, ya’ni mahalla katta ahamiyatga ega. Tabiatni e’zozlash va uni muhofazalash faoliyatining an’anaviy malakalarini shakllantiruvchi ushbu hamjamiyat doirasida tozalash, qurilish va ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha hasharlar, tabiiy inshootlarni asrash va ularni ko‘paytirish maqsadida mehr-muruvvat va xayr-saxovat ko‘rsatish, ekologik mazmundagi milliy (Navro‘z, mustaqillik, mehrjon, hosil) bayramlarini nishonlash

kabi ommaviy tadbirlarni o'tkazish yo'li bilan birdaniga mikroijtimoiylashuv darajasiga ko'tariladi.

Bizningcha, mahalla faoliyati tabiatni e'zozlovchi tabiiy-ekologik tushunchalarning ijtimoiylashuv vositasi, shuningdek, inson va tabiat ijtimoiy-ekologik jihatdan o'zaro uyg'un harakatlarining motivli, munosabatli, faoliyatli hamda bilish omillari kabi juda sermahsul ifodalaniladigan tarbiya tamoyili bilan bog'liqdir.

Antik davrda Demokrit, Aflotun va Arastu nazariyalarida tug'ilgan hozirgi pedagogika fanida ham mavjud bo'lgan bu tamoyil inson va tabiat rivojlanishining umumiy qonuniyatlariga muvofiq tarzda qaraladigan hamda insonda biomaydon taraqqiyoti va o'z-o'zini rivojlantirish holatiga ma'suliyatni shakllantiradigan tabiiy- ijtimoiy omillarning o'zaro aloqalarini ilmiy bilish sifatida talqin etiladi.

Tarbiyadagi tabiatni e'zozlash tamoyilining bugungi kundagi tatbig'i ekomarkaz nuqtai nazaridan, ya'ni (o'zini tabiatning bir qismi sifatida anglash) uning shaxsiy, axloqiy va fuqarolik sifatlarini rivojlantirish asosida tabiat bilan o'zaro foydali bo'lgan birgalikdagi harakatlariga ko'rsatma va motivatsiyalarni insonda shakllantirish yo'llari bilan amalga oshiriladi.

Tabiatni e'zozlash tamoyili shaxsning ijtimoiylashuv sharti va uning ajralmas tarkibiy qismi sifatida tabiat, sayyora va butun biomaydonga ijobiy-axloqiy munosabatda bo'lish qoidalari, shuningdek, tabiatni muhofazalaydigan, tabiiy boyliklarni asrovchi tafakkur va xulq-atvorni shakllanishiga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Tabiatni e'zozlashga yo'naltirilgan tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri – bu o'sib kelayotgan yosh avlodda tabiatga daxldorlik hissini va uning ajralmas qismi sifatida sotsiumni shakllantirish hisoblanadi.

Respublikamizda o'sib kelayotgan yosh avlodni ekologik tarbiyalashning ijtimoiylashuv jarayoni bilan uzviy bog'liqligi barcha ijtimoiy institutlar, jumladan, hokimiyatlar, ta'lim-tarbiya muassasalari, oilalar yordamida ta'minlangan bo'lishi kerak.

Shunga ko'ra tarbiya, birinchidan, milliy, ijtimoiy-ekologik qadriyatlar asosida, ikkinchidan, atrof-muhitni muhofazalash bo'yicha bilim va faoliyatni umumlashtirishni ta'minlash orqali amalga oshishi lozim.

Atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha insonlarning bilim darajasi quyidagi muammolarni qamrab olishi shart:

1. O'zbekistonda umumbashariy tusdagi ekologik muammolarning bugungi kundagi holati va ularning yechimi. (Jumladan, xo'jalik tizimi, foydali qazilmalarni qazib olish, insonning xo'jalik faoliyatidagi chiqindilar, sanoat ob'ektlari faoliyati, Yer va suv qazilmalari holati).

2. Respublikamizning ekologik muammolari – Yerning qurib ketishi, suv va havo yo'llarining ifloslanishi, zaharli moddalarni qo'llash tezligi, Orol fojeasi, sanoat va xo'jalik chiqindilari, qazilma boyliklardan haddan tashqari ko'p foydalanish, qishloq xo'jalik mahsulotlari quvvati va biokimyoviy qiymatining pasayishi.

3. Respublikamizda ekotizimning mavjudligi va uning holati, Respublika qo'riqxonalari va buyurtmachilari, tabiatni muhofazalash qonunlari va uning ilmiy asoslari.

Ekologik faoliyatni tashkil qiluvchi hamda axloqiy-ekologik munosabatlarning shakllanishi atrof-muhitning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan belgilari va uning muvofiq tarzda yaratilish usullariga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Muhofazalash atrof-muhitni yaxshilash va himoyalash bo'yicha aniq amaliy faoliyat, kishilar ekologik faoliyatining kichik qismi sifatida insonga o'z mehnatining ijtimoiy ahamiyatini his qilish imkoniyatini beradi.

Kishilarning ekologik va ijtimoiy foydali faoliyati stimul iva motivlari kengayadi, qiziqishlari kuchayadi. Shuningdek, mazkur faoliyat turida ular o'zlari uchun fuqarolik, mustaqil va yakka tarzdagi hamda shaxs ijtimoiylashuv jarayonining ajralmas belgilari hisoblanuvchi ijodiy o'zgartirilgan ehtiyojlardan qoniqish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

II BOB. KISHILIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA SHAXSNI TARBIYALASH MUAMMOSI.

2.1. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari

O‘qituvchi shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishning pedagogik-psixologik mexanizmlari, vositalari, usul va metodlarini yaxshi bilib olishi kerak. Biz ko‘plab o‘qituvchilarning shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etish borasidagi faoliyatini kuzatish natijasida ular bu jarayonni amalga oshirish mexanizmlaridan to‘la xabardor emasliklariga guvoh bo‘ldik. Buning uchun maktab ma‘muriyati va uslubiy kengashlar o‘qituvchini shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etish mexanizmlari bilan qurollantirishga qaratilgan ilmiy-metodik faoliyatni samarali yo‘lga qo‘yishlari lozim. O‘qituvchilar bilan ishlashning bunday yo‘nalishi ularning kasbiy faoliyatini yaxlit, frontal rivojlantirish imkonini beradi. O‘qituvchining shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etish sohasidagi faoliyati tashxisi natijalari shuni ko‘rsatdiki, ularning shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim tushunchalari, texnologiyalari, mezonlarini o‘zlashtirganlik darajalari ancha past ekan. Shuning uchun ham o‘qituvchilarga shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limag oid tushunchalar, uning natijalarini baholash mezonlari, bu jarayonni amalga oshirish texnologiyalari haqidagi bilimlar va keng ko‘lamdagi metodik yordam berish nazarda tutilishi kerak. Buning uchun o‘qituvchini shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishga tayyorlashning umumiy va xususiy maqsadlari belgilab olinishi lozim. Bu maqsadlar turli darajadagi tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘qituvchilar faoliyatining tashxisi natijalariga tayangan holda belgilanishi zarur. Chunonchi:

1. Faol bo‘lmagan reproduktiv faoliyat turiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar uchun o‘zlarining shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etish sohasidagi nuqtai nazarlarini ifodalashga o‘rgatish maqsadi qo‘yilishi kerak.

2. Ixtirochi, erkin fikrlovchi o‘qituvchilar uchun shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonida o‘quvchi bilan o‘zaro aloqador bo‘lgan dialogni yo‘lga qo‘yish metodikasini o‘zlashtirish ustivor bo‘lmog‘i lozim.

3. Ijodkor, tadqiqotchi o'qituvchilar esa o'z faoliyatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslagan holda ifodalash darajasiga ko'tarilishlari talab etiladi.

Bu tipdagi o'qituvchilar o'quv-biluv jarayonining mazmunidan kelib chiqqan holda o'z pedagogik faoliyatlarining maqsadlarini aniq bayon eta olishlari kerak. Buning uchun har bir toifaga mansub pedagoglarning saviyasini aniqlashga qaratilgan aniq savol va topshiriqlar tizimi pedagogik jamoa tomonidan ishlab chiqilishi zarur. (-ilovaga qarang)

Bu jarayonda quyidagi umumiy masalalarni yechish lozim:

1. Pedagogik jamoaning barcha a'zolarini shaxsga yo'naltirilgan ta'limning g'oyaviy asoslari va asosiy tushunchalarini o'rganish, bu g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini mustaqil ko'rsatib berish haqida o'qituvchilarga individual topshiriqlar berish.

2. O'qituvchiga shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonida o'quvchining rivojlanish dinamikasi, shaxsiy sifatleri, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini tashxislashning eng qulay metodlari va metodikalarini o'rgatishga xizmat qiladigan mashg'ulotlar tizimini tashkil etish va muntazam o'tkazish.

3. O'qituvchini shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonida o'quvchini rivojlantirishga qaratilgan o'z faoliyatini muntazam tahlil qilib, kamchiliklarini bartaraf etishga odatlantirish.

Ko'zda tutilgan birinchi maqsadga ershish uchun bu guruhdagi o'qituvchilar pedagogik faoliyatining mavjud qirralarini yaxshi bilib olishi kerak. O'qituvchidagi ruhiy o'ziga xoslik va xususiyatlarni markazlashtirish, bir nuqtaga jamlash pedagogning kasbiy mehnatini integrallashtirish, izchil tizimga solish imkonini beradi. Bu mehnatning barcha o'ziga xos qirralari, jihatlari va parametrlarini aniqlashga ko'maklashadi. O'qituvchining xuddi mana shu jihatlari uning kasbiy faoliyati takomillashuviga ko'maklashadi. Shuning uchun ham birinchi guruhga mansub o'qituvchilar bilan ularni shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini amalga oshirishga tayyorlash ustida ishlash jarayonida quyidagi vazifalar qo'yiladi va hal qilinadi:

1. O'qituvchilarda shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonining maqsadini aniqlash ko'nikmasini hosil qilish; bunda o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlarini alohida hisobga olib bilishlariga erishish; shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini o'quvchining hayotiy ehtiyojlari va qadriyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish.

2. O'qituvchilarda o'quvchilarning rivojlanish vaziyatlarini modellashtirish tajribasini shakllantirish; shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayoni mazmuniga insonparvarlikka oid bilimlar, tushunchalar, tajribalarni singdirish; o'zining va o'quvchisining tajribalaridan ta'lim mazmunining uzviy qismi sifatida foydalana olishiga erishish; o'quv-biluv jarayonining tarkibini belgilashda modellashtirish, o'yin, muammoli o'qitish metodlaridan foydalanish.

3. Zamonaviy ta'lim metodlari, texnologiyalari, o'qitish shakllari vositasida o'qituvchi faoliyati dolzarbligini oshirish, darsning muammoli, o'yin, dialog, loyihalashtirish, jamoaviy-ijodiy, munozaraga asoslangan turlaridan keng foydalanish.

Shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchi dialogini vujudga keltirish natijasida quyidagi vazifalarga yechim izlanadi:

1. Shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini tashkil etishda o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligini o'rnatish, o'zaro bir-birini tushunish, ta'lim jarayoni sub'ektlarining o'zaro tengligi asosida pedagoglarni vujudga keladigan to'siqlarni bartaraf etishga o'rgatish.

2. O'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayoni mazmunida mustaqil ravishda o'quvchilarning rivojlanishini ta'minlovchi komponentlarni kiritishlariga erishish; bu jarayonda o'quvchi va o'qituvchi ta'lim mazmuniga kiritilayotgan elementlar haqida mustaqil fikrlay olishiga erishish.

3. O'qituvchilarni shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonida o'quvchining uzluksiz rivojlanishini hisobga olgan holda ish turlari, ta'limiy topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borishga odatlantirish; bu topshiriqlar o'quvchilarda mustaqillik, kreativlik hamda o'quv mayllarini hosil qilishini ta'minlash.

O‘zining tadqiqotchilik, ijodkorlik qirralarini namoyon qila oladigan o‘qituvchilar shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonida bir qator muhim vazifalarni bajara olishlari kerak. Jumladan:

- o‘qituvchilar shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonining barcha bosqichlarida o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini tahlil qila olishlari;

- shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonida o‘quvchining uzluksiz rivojlanishi uchun qulay imkoniyat yaratadigan o‘quv maqsadlari, ta’lim mazmuni, pedagogik vositalarning ifodalanishi;

- ta’lim mazmuniga o‘qituvchining o‘zi tomonidan kiritilgan elementlarni ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab bera olishi;

- ilg‘or pedagogik texnologiya elementlarini qo‘llash natijasida o‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyatidagi kamchiliklarini tuzata olishi kabilar.

Bir so‘z bilan aytganda shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun o‘qituvchida yangicha pedagogik tafakur qaror topgan bo‘lishi kerak. O‘qituvchida yangi pedagogik tafakkur va nuqtai nazarining vujudga kelishi natijasida shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etish yo‘lidagi ko‘pgina to‘siqlar bartaraf etiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonida o‘qituvchi uchun pedagogik bilimdonlik va ob‘ektivlik muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining didaktik reallik haqidagi tasavvuri shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonida o‘quvchini kuzatish, uning faoliyatini tahlil qilish asosida shakllanadi. Bu mazkur jarayonda sub‘ekt-ob‘ekt munosabatlari darajasida namoyon bo‘lishi kerak. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayoni doirasida «sub‘ekt»ning pedagogik talqini muntazam harakatdagi rivojlanuvchi shaxs demakdir. Sub‘ekt-sub‘ekt o‘qituvchining harakati, o‘quvchi bilan hamkorlik qilish va uni rivojlantirish jarayonini boshqarishni anglatadi. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonida o‘zaro ta’sir va hamkorlik natijasida o‘quvchi hamda o‘qituvchi orasidagi pedagogik aloqadorlik vujudga keladi. O‘quv-biluv jarayonida sub‘ektlarning o‘zaro hamkorligi ta’lim natijasining sifatini kafolatlaydi. Ta’lim jarayoni sub‘ektlarining o‘zaro hamkorligi natijasida ularning har ikkalasi ham rivojlanadi.

Chunki bunday pedagogik hamkorlik doirasida sub'ektlar turli ilmiy tushunchalarni qo'llaydilar va o'zlashtiradilar. Shunga ko'ra ta'lim jarayoni sub'ektlari muntazam harakatdagi, o'zaro aloqadorlik va ta'sirga ega bo'lgan, taqdim etilgan bilimlarni o'zlashtiruvchi hamda bu jarayonni boshqaruvchi, o'zlarini alohida-alohida namoyon qiluvchi ongli, faol insonlar, ya'ni o'quvchilar hamda o'qituvchidir.

Shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonida juda ko'plab individual, ruhiy xususiyatlar, o'zaro aloqador munosabatlar hisobga olinishi lozim. Bu tushunchalar o'quv-biluv jarayonida vujudga keladigan didaktik hodisalarni tavsiflash va baholash uchun muhimdir.

Shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini ilmiy yondashuv asosida tashkil etishda o'quvchiga taqdim etiladigan o'quv materiallarini tizimlashtirish, o'qituvchi hamda o'quvchi munosabatlarining tipologiyasini aniqlash, mazkur jarayon turlarini tasniflash muhim ahamiyatga ega.

Mavjud adabiyotlar va amaliyotdagi ahvol tahlili o'qituvchi va o'quvchining o'quv-biluv jarayonidagi hamkorligini ifodalovchi didaktik tamoyillarni birmuncha tavsifiy elementlar yordamida bayon etish imkonini berdi. Ularni shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayoniga xos bo'lgan umumiy va xususiy tushunchalar, pedagogik ma'lumotlar, o'quvchining individualligi, yosh xususiyatlari, uning egallagan bilim, ko'nikmalarini tashxislash mezonlari, shaxsiy sifatlari kabilar tashkil qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonida o'quvchilarning shaxsiy sifatlarini o'zaro taqqoslash natijasida ularning individual xususiyatlari namoyon bo'ladi. Bu munosabatlar o'quvchini uzluksiz rivojlantirish tizimini belgilaydi. O'quvchini uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayoni to'laligicha shaxsga yo'naltirilgan pedagogik vaziyat sifatida namoyon bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayoni B.S.Gershunskiyning shaxsni o'z-o'zini namoyon qilish konsepsiyasi asosida amalga oshiriladi.

Bugungi kunda ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan asosiy buyurtma jamiyatga raqobatbardosh shaxsni yetishtirib berishdan iborat. Shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayoni pedagogik jihatdan asosan ikki yo'nalishda ta'minlanadi:

1. O'quvchi shaxsini uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llash.
2. O'quvchini ta'lim jarayonida uzluksiz rivojlantirish va pedagogik-psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali.

Maktab ta'limi jarayonida qo'llaniladigan o'quvchi shaxsini ijtimoiy jihatdan shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasini ijtimoiy-pedagogik hamda madaniy jihatdan yo'naltiruvchi vositalar: o'quvchilarning ijtimoiy xulq-atvori, egallagan bilimlari, ularni uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv materiallari, o'quvchi bilan o'qituvchining hamkorligi kabilar.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar o'quvchilarning ijobiy sifatlarini rivojlantirishga ham qaratilishi lozim. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar muntazam qo'llanilgan sinflardagi o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari ularda o'ziga nisbatan ishonch, intiluvchanlik, insonparvarlik, mas'uliyat, javobgarlikni his etish, yutuqlarga intilish, bardosh, yangiliklar yaratishga intilish kabi ijlbiy sifatlar qaror topganligini ko'rsatdi.

Shunga ko'ra o'quvchi shaxsini ijtimoiy jihatdan shakllantirishga yo'naltirilgan quyidagi ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarda shaxsiy sifatlarni qaror topirish mumkin:

- ixtiyorsiz vujudga keladigan xulq-atvorni bartaraf etishga yo'naltirilgan texnologiyalar;

- o'quvchilarni muayyan kasbga yo'naltiruvchi va kasb tanlashga o'rgatuvchi texnologiyalar. Bunda o'quvchining izlanuvchanligi, muammolarni tezkor hal qila olishi, vaziyatlarni baholay olishi, tayyorgarlik darajasi aniq hisobga olinishi lozim;

- o'zaro hamkorlik va muloqotga chorlovchi texnologiyalar;

- quyilgan muammolarning samarali yechimini izlashga undovchi texnologiyalar;

-o'quvchilarda namunali xulq-atvorni shakllantiruvchi texnologiyalar.

Shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonida o'quvchi shaxsini ijtimoiy hayotga tayyorlashga qaratilgan ta'lim texnologiyalari o'zaro aloqador didaktik tizimni vujudga keltiradi. Ya'ni har bir texnologiya o'zidan keyingi mikrotexnologiyadan foydalanish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu tizimda birinchi mikrotexnologiya boshqalariga nisbatan muhim hisoblanadi. Bu o'rinda o'quvchining shaxsiyati va o'z-o'zini rivojlantirish imkoniyati kengayib boradi. Mazkur tizimdagi so'ngi texnologiya o'zidan oldingi mikrotexnologiyalarni mujassamlashtiradi. Natijada o'quvchini ijtimoiy hayotga tayyorlashga qaratilgan ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish jarayoni integrativ xarakterga ega bo'ladi.

Ijtimoiy jihatdan shakllangan o'quvchi shaxsini tarkib toptirishga yo'naltirilgan texnologiyalar shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonining maqsadi va mazmuniga asoslangan holda tanlanadi. Shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonining xususiy maqsadlaridan biri va eng muhimi ijtimoiy jihatdan shakllangan o'quvchini kamol toptirishdan iborat bo'lib, bu jarayonda yangidan yangi ta'lim texnologiyalarini qo'llash kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi.

O'quvchi shaxsini ijtimoiy hayotga tayyorlashga qaratilgan o'quv-biluv jarayonining mazmuni muayyan maqsadga yo'naltirilganlik, me'yorlanganlik, ijtimoiy madaniylashganlik, integratsiya tamoyillariga asoslanishi lozim.

O'quvchini o'quv-biluv jarayonida pedagogik-psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

O'quvchi shaxsida ijobiy sifatlarni rivojlantirishda ularni pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Bunda quyidagi nazariy asoslarga tayanish maqsadga muvofiqdir:

1. O'quvchi o'z-o'zini muntazam rivojlantirib boradigan ta'lim jarayonining sub'ekti hisoblanadi. U o'z-o'zini samarali rivojlantirish jarayonida murakkablashish va differentsatsiya bosqichlarini navbatma-navbat bosib o'tadi. Bu o'rinda o'quvchini psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning natijasi ularning

yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda individual rivojlanishi va imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

2. Shaxsga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonida o'quvchi muntazam rivojlanib boradi. Psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlovning vazifasi o'quvchining rivojlanish yo'lini kuzatishdan iboratdir. Bunda uning o'zlashtira olmasligi sabablari, rivojlanish imkoniyatlari va o'quv maydonlarini o'z vaqtida aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bu vazifani zamonaviy axborot texnologiyalari hamda muayyan o'quvchi shaxsi haqidagi mavjud ma'lumotlarni har tomonlama o'rganishning zamonaviy metodlariga ega bo'lgan holdagina amalga oshirish mumkin.

2.2. Tarbiyaning ijtimoiy hodisa va pedagogik jarayon ekanligi.

Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad, har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axlokiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Shunga ko'ra tarbiyaviy faoliyatning mazmuni, tashkiliy shakllari usullari shu maksadga erishishni ko'zda tutadi.

Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzluksiz davom etadigan jarayondir. Ko'pincha bir necha maqsad va vazifa birdaniga bajariladi, bu esa o'quvchilar jamoasining aqliy va axloqiy o'sishini ta'minlaydi.

Shaxsni shakllanishi manfaatlari har bir pedagogik tadbirni tarbiyani umumiy maqsadlari bilan bog'lashni, uni rejali tarzda va qat'iy sur'atlarda amalga oshirishiga harakat qilishni talab etadi.

Umumiy ta'lim maktabi yangi pedagogik tafakkur egasi munosib shaxs uz ishining ustasi bo'lgan ukituvchiga muxtoj maktabda ukuvchilarga gumanitar ijtimoiy fanlardan ta'lim berishda tarbiyaga kuprok e'tiborini karatmog'i lozim.

Ayniksa, xozirgi Uzbekiston tarixi, adabiyotini ukitish jarayonida bevosita tarbiyaga oid bulgan ilmiy ma'naviyatga, milliy rux, urf-odat va shuningdek, umumbashariy kadriyatlarga aloxida urg'u berish zarur.

Ukituvchi ukuvchi qalbimga yo'l topish uchun bilimi va ishi bilangina emas, ayni paytda odob-axlokiy, madaniyatli, rostgo'ylik va shirin-suxondonligi bilan

namuna bo'lishi lozim. Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, xar bir bola, usmir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini xisobga olish lozim. Bola o'qishni, tarbiya olishini istaydi, ulgayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishini xoxlaydi. Pedagog uni qay usulda, kanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonida tarbiyalash lozim. Ukuvchilar yaqin kishilarining munosabatlarini yaxshi bilsa, bu unga ishda yordam bersa, shundagina bola pedagogik ta'sir o'tkazishga ochiq va moyil bo'ladi. O'qituvchi-do'st, murabiy, yo'l boshlovchi, bo'lgandagina, o'quvchilar o'zlarining ichki olamlarining ochib ko'rsatadilar.

Yuqorida aytganimizdek, tarbiya-tarbiyachi va tarbilanuvchini o'z ichiga olgan ikki yoklama jarayondir. Ijtimoiy tarbiyaga o'quvchilarda ilmiy dunyokarash, e'tiqodi, ma'naviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni ongi va xislari va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari kiradi. Bu usulning mohiyati shundaki, ular orqali jamiyat ukuvchilar ongiga kanday talablar kuyayotgani yoshlarning dunyokarashini shakllantirish xayot mazmunini tushib olishga kumaklashish uchun ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar ishlatiladi.

Ukuvchilar siyosiy onglik va ijtimoiy faollik, ya'ni davlatni ichki va xalkaro siyosati koidalarini tushuntirish va idrok kilishini tarbiyalash lozim. Tushuntirish - bu ijtimoiy ongini shakllantirishda eng kup ishlatiladigan usuldir. Tushuntirish vazifasi ukuvchilarni yuksak madaniyatli, g'ururli kilib tarbiyalashda yordam berishdan iborat. Tushuntirishda ukuvchilarga mamlakatimiz fukarosining uz davlatiga nisbatan xukuklar va burchlar bilan boglanganligi borasida ma'lumotlar beriladi. Bunda davlat bayrogi, gerbi, madxiyasi, Konstitutsiyasiga sadokat ruxida tarbiya berishning axamiyati katta. Shu sababli ukuvchilarga davlat bayrogi, gerbi, madxiyasi, konstitutsiyasi moxiyati tushuntiriladi.

Faoliyat jarayonida ijtimoiy xulk tajribalarini shakllantirish mumkin. Bola rivojlanishining uzligini belgilashining asosiy omili - bu faoliyatdir. Faoliyat nuktai nazardan yondashish koidasi maktab xayotining xamma jabxalarida ta'lim-tarbiya jarayoniga singib ketadi. Faoliyat ukuvchilarni bilimlarini mustakil egallashga undaydi, ularni kaysi ixtisosga moyilliklarini aniklashga, ijodiy faoliyat

tajribasini xissi qadriyat munosabatlarini uzlashtirishga yordam beradi. Ukuvchilarni birinchi sinfdan boshlab imkoniyat darajasida foydali mexnat bilan shugullantirilshga erishish lozim. Bunday mexnat kupchilik, jamoa bulib bajarilganida yaxshi natija beradi.

Tarbiya soatlarimizda ukuvchilarimizga marosimlarimizni tushuntirib borishimiz lozim. Topishmok, she'r, tez aytish, dostonlar bolalar ruxiyatiga ijobiy ta'sir kursatadi. Yosh avlodimizga, dinimizni urgatishimiz kerak, maktablarda esa bu an'anarimiz, kadriyatlarimizni kadrlash kerak, xadislardan parchalar yodlatish, hayitni kadimgi bayram ekanligini, uni yanada yaxshirok tayorgarlik bilan utkazish, milliy liboslar xakida suxbatlar utkazish kerak. Tarbiya jarayonining moxiyati shu jarayon uchun xarakterli bulgan va muayyan konuniyatlarda namoyon buladigan ichki aloka va munosabatlarni aks ettiradi. Bola kattalarning tajribalarini sust xolda emas, balki faol ravishda uzlashtiradi uning ongi, xarakati, tirishkokligi katta axamiyatga ega buladi.

Pedagogika shaxsni kamolotga yetishini murakkab va ziddiyatli jarayon deb biladi. Shaxsning kamolotga yetishishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muxit xam, maksadga muvofik amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya va nixoyat uzining mustakil faoliyati xam muxim axamiyatga ega. Shaxs kaysi jamiyatda yashasa usha jamiyat xayotidagi konun va koidalarga asosan kamol topadi. Shu jamiyatning moddiy va ma'naviy boyligidan baxramand buladi. Demak, shaxsning kamolga yetishuvi jamiyat rivojiga chambarchas boglikdir. Inson kamolotida irsiyatning ta'siri kattadir. Irsiyat deganda - bolaga ota-ona va umuman yakin ajdodlardan ya'ni nasldan-naslga o'tadigan biologik xususiyat va uxshashliklar tushuniladi. Shaxs xulking rivojlantirishda biologik omillarning ta'sirini yuksak baxolab, shaxsni naslga bog'lab urganuvchi okimlardan yana biri bixeviotrizm bulib, u XX asrdan boshlab psixologiya fanida keng tarkaladi. Bunga amerikalik pedagog va ruxshunos E.Torndayk asos soldi. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, shu jumladan ong va akliy kobiliyati xam nasldan-naslga utadi.

Demak,bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta'siri deganda ota-onaga, avlod-ajdodlarga uxshashligini ifodalovchi biologik belgilarning takrorlanishini

tushunmok kerak. Xar bir bola ota-onasidan meros sifatida biologik kurinishlariga (tananing tuzulishi va uning mutanosibligi, sochi, ko'zi, terisining rangi, bo'y-basti va boshkalar) ega bo'lib dunyoga keladi. Bular jismoniy xususiyatlardir. Ayni vaktida bolaga insonlarga xos xususiyatlar xam irsiyat yuli bilan tug'ma o'tadi. Ammo bular tug'ma imkoniyatlar bulib, ularning rivojlanishi uchun inson bolasi insoniy muxitda, odamlar orasida yashab, ular bilan aloqa kilishi, ijtimoiy mexnatda ishtirok etmogi lozim. Chunki inson biologik mavjud sifatidagina emas, balki ijtimoiy mexnatda ishtirok etmogi lozim. Shuningdek irsiy yo'l bilan utgan aklning o'sishi, kamol topishi uchun akliy faoliyat, shart-sharoit xam bo'lishi lozim.

Bolaning kamolga yetishida muxitning ta'siri kata. Fiziologiya va ruxshunoslik fanining kursatishicha, inson bolasi tayyor kobiliyat bilan emas, balki biror-bir kobiliyatning ruyobga chikishi va rivojlanishi manbai-layokati bilan tug'iladi. Layokat o'z xolicha rivojlana olmaydi, uning rivojlanishi uchun qulay muxit kerak. Muxit deganda kishiga ta'sir etadigan tashki vositalarning yigindisini tushunamiz, bunga tabiiy muxit, ijtimoiy muxit, oila muxiti va boshkalar kiradi. Xamda ular bolalarning rivojlanishiga aloxida ta'sir etadi. Bola tugilishi bilan ijtimoiy xayot sharoitlari, tayyor ijtimoiy ong shakllarga duch keladi. U mexnat sharoitining ta'sirida usadi-ulgayadi. Kishilarning uzaro mulokotlari natijasida bolada nutk shakllanadi, usadi. Yukorida ta'kidlaganimizdek, ijtimoiy muxit kishilarning faol ishtiroklari, faoliyatlari natijasida tarixan uzgarib boradi. Demak, boladagi irsiy belgilarning usishi, kamol topishi insonlar muxiti, yashash sharoiti va tarbiyaga boglik desak buladi. Bunga tarixdan misollar juda kup. Alisher Navoiy onasidan – shoir, Eynshteyn-fizik, Ulugbek-astronom, Ibn Sino-tabib bulib tugilmagan, albatta ulardagi kobiliyat kurtaklarning rivojlanishi, istedodiga aylanishida ijtimoiy muxit, ta'lim-tarbiya muxiti rol uynagan. Agar inson bolasi ijtimoiy muxitga emas boshka muxit, aytaylik, xayvonlar muxitiga tushib kolsa unda irsiy belgilarning ayrim biologik kurinishlari saklangan lekin insoniy fikr, faoliyat, xatti-xarakat bulmaydi. Odob-axlok, xulkiy sifatlar fakat muxit va

tarbiyaning uzaro ta'siri asosida vujudga keladi. Shuning uchun irsiyat rivojlanishiga ta'sir etadi, ammo xal kuluvchi omil bula olmaydi.

Jamiyatning bolalar ongiga ta'sir o'tkazishi asosan ta'lim-tarbiya orkali amalga oshiriladi. Bola yoshligidan atrofdagi kishilar bilan mulokotda bulib, bilimlar, kunikmalar va malakalarni egallaydi. U dastlab oila sharoitida va maktabgacha tarbiya muassasalarida keyinchalik maktabda ta'lim tarbiya oladi. Bolani o'rab olgan muxit, mexnat va til okibat natijasida tarbiya vositasiga aylana-di. Bunda muxitning ta'siri stixiyali ekanligi xisobga olmok lozim. Shu sababli inson kamolotida ta'lim va tarbiyaning yetakchilik kilishiga imkon berish darkor. Chunki ta'lim tarbiya jarayonida kishi organizmining usishi va muxitning stixiyali ta'siri bera olmaydigan narsalarni urganib oladi. Lekin ukish va yozishni maxsus ta'lim yuli bilangina urganadi, maxsus mexnat va texnika bilim, kunikma va malakalari fakat ta'lim jarayonida egallanadi. Ta'lim tarbiya yordamida xatto kishining ba'zi tug'ma kamchiliklardan kerakli tomonga uzgartirish mumkin, chunonchi ba'zi bir bolalar ayrim kamchiliklar bilan tugiladi. Lekin maxsus uqtirilgan ta'lim-tarbiya yordamida ularning aqli tula tarakkiy kiladi.

Demak, bizning asosiy va eng muxim vazifamiz bolalarni kobiliyat va iste'dodlarini uz vaktida paykab olish va ularni kamol topishlari uchun kulay sharoit, ta'lim-tarbiya berishdir.

Inson tirik-biologik mavjudoddir. Demak, uning rivojlanishiga tabiat konunlari, biologik va ijtimoiy-iktisodiy qonuniyatlar uzviy ta'sir etadi, insonni kamol toptiradi. Bu tushunchalarni bir-biridan ajrtish mumkin emas. Chunki shaxs faoliyatiga, xayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasigina emas, balki kasalligi yoki biror boshka fojiali xolat ham ta'sir etishi mumkin. Odamning mukammal inson bo'lib yetishuvida o'zining maqsad asosidagi xatti-xarakati, iroda sifatlarining kamol topishi natijasida ayrim nuksonlarni bartaraf etishi mumkin, kiyinchiliklarni yengib chikishi mumkinligini esdan chikarmasligi lozim.

XULOSA

Shaxs deganda muayyan jamiyatning a'zosi tushiniladi. Odam shaxs bo'lishi uchun ruxiy jixatdan tarakkiy etgan, o'z xususiyati va sifatleri bilan boshkalardan fark kilishi lozim. Xar bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri qiziqishi va qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, extiyoji, mexnat faoliyatiga munosabati bilan farklanadi. Bular shaxsning o'ziga xos xususiyati bo'lib, ana shu ruxiy xususiyatlari rivojlanib ma'lum bir bosqichga yet-sagina uni mukammal kamol topgan inson deyiladi. Shaxsning ijtimoiy voqelikka, mexnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati turlicha, uning foallik darajasi va odob-axlok borasida yetukligi xam turlicha bo'ladi.

Odamning ijtimoiy mavjudod sifatida shaxs nomini olish uchun unga ijtimoiy-iktisodiy xayot va tarbiya kerak. Shu sababli pedagogika fani bolaning shaxs sifatida rivojlanishi, uning xar tomonlama kamolga yetish qonuniyatlarini, unga ta'sir etuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillarini, rivojlanish jarayoniga aloqador davrlarini aniklash kerak. Shunga asosan pedagogika fani shaxsning rivojlanishda ta'lim, o'qitish, tarbiya va bola faolligi, uz uzini tarbiyalash boskichlarini aniklashi lozim.

Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo xayot, yo mamot - yo najot - yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir", deb ta'kidlagan edi. Buyuk mutafakkirning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalik muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muxim va dolzarbdir.

Chunki ta'lim-tarbiya – ong mas'uli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa, biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni borpo etib bo'lmaydi. Shaxs tarbiyaning ob'ekti va sub'ekti hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008 y.
2. G'oziev E. "Psixologiya"(o'quv qo'llanma). - T . 1994 yil.
3. Asmolov A.G. Psixologiya lichnosti. – Izd-vo Mosk. un-ta, 1990. – 367 s.
4. Bern E. Lider i grupp. O strukture i dinamike organizatsiy i grupp. – Yekaterinburg: Izd-vo «Litur», 2000. – 320 s.
5. Berns R. Razvitie Ya-konsepsii i vospitanie. – M.: Progress, 1986. – 422 s.
6. Bojovich L.I. Lichnost i yee formirovanie v detskom vozraste. – M.: Prosvehenie, 1968. – 464 s.
7. Bratus B.S. Anomaliya lichnosti. – M.: Misl, 1988. – 301 s.
8. Bratus B.S. K probleme cheloveka v psixologii // Voprosi psixologii. – 1997. – № 5. – S.3-19.
9. Kan-Kalik V.A., Nikandrov N.D. Pedagogicheskoe tvorchestvo. – M., 1990.
10. Leontev A.N. Ocherk psixologii lichnosti. – 2-e izd. – M.: Smisl, 1997. – 64 s.
11. Lichnostno orientirovannoe obrazovanie: fenomen, konsepsiya, texnologii: Monografiya. – Volgograd, 2000. – 148 s.
12. Serikov V.V. Orientatsiya na lichnost kak paradigma sovremennogo obrazovaniya // Gegyarlt. Nauchno-metod. jurnal. - № 1. – 1998. – S.1-5.
13. Arziqulov D. N. Kasbiy kamolotning psixologik o'ziga xos xususiyatlari. T.: 2002,- 21 bet
14. Bozorov E, Musurmonova O. "O'qituvchining ijodkorligi-davr talabi", Toshkent "O'qituvchi", 1990
15. Boldirev N.I. Sinf rahbarlari.-T.: O'qituvchi, 1975. - b.
16. Davletshin M G "Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi" Toshkent "O'zbekiston"1999 y –29bet

17. Jumanioyozova M. "Muammoli ta'lim jarayonida o'quvchiga qo'yiladigan talablar" "Uzluksiz ta'lim" 2005y 4 son 40-bet.
18. Ibragimova M. Shermatov X. Ta'lim jarayonida faol usullarni qo'llash. - // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2005. 5-son 16-bet.
19. Yo'ldoshev J. /. "Pedagogik texnologiya asoslari (xalq ta'limi xodimlari uchun)" Toshkent, -O'qituvchi 2004 y.
20. Mamajonov A. "Shaxs kasb madaniyatining tarkibi, ko'rsatkichlari va belgilarining asoslanishi". "Maktab va hayot" 5-son, 2004 y.(4-bet).
21. Podlaso'y I.P. Pedagogika 100 voprosov – 100 otvetov. – M.: «Vlados», 2003. – 368 s.
22. Roziqov O., Og'ayev S., Adizov B. Ta'lim texnologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 1999. 71b.
23. Tolipov O'. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006. – 264 b.
24. Tolipov O'. Q. "Tajriba-sinovlarini o'tkazishda yangi pedagogik texnologiyalar", // Xalq ta'limi.-Toshkent, 1999.- № 2-3-B 63-67.
25. Urishov Sh. O'qituvchining pedagogik madaniyati , // Xalq ta'limi.-Toshkent, 2006.- № 2-B 46-48.
26. Fayzullayeva N. "O'qituvchi kasbiy mahoratida pedagogik ko'nikmalarning o'rni", // Xalq ta'limi.-Toshkent, 2006.- № 3-B 50-52